



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 258 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari.....	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон қизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла қизи</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari.....	157
<i>Abduvaxobova Nodira</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari.....	160
<i>Ismailova Nozima Umaraliyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnни tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati.....	164
<i>Utanbayeva Dildora Abdixadirovna</i>	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
<i>Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li</i>	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
<i>To'raqulov Akbar Rustam o'g'li</i>	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
<i>Temirova Muyassar Abdulkarim qizi</i>	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
<i>Raximova Surayyo Otabek qizi</i>	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash.....	183
<i>Biysenov Temirbek Taumuratovich</i>	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati.....	188
<i>Choriyeva Surayyo Choriyevna</i>	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education.....	192
<i>Davidova Sayyora Sirojiddin kizi</i>	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari.....	196
<i>Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna</i>	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish.....	201
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati.....	206
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
<i>Mannanova Nargiza Xaydarovna</i>	



Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari	215
Masharipova Kumushoy Amin qizi	
The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students.....	218
Mavlonova Dildora Shukhrat kizi	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish	222
N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova	
Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...	226
Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich	
The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture	230
Rajabova Shaxlo Shodmonovna	
Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati	234
Ramazonova Salomat Saidovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash	238
Saidova Gulruh Halim qizi	
O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida).....	242
Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna	
Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников	246
Истамова Нигора Азимжановна	
Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	249
Xakimova Dildora Mashrabjonovna	
Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов	253
Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна	

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mannanova Nargiza Xaydarovna

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari yoritilgan. Unda ta'lim tizimida samarali boshqaruvning zamonaviy talablari, innovatsion menejmentning mohiyati va uning o'quv jarayonidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion yondashuvning konseptual asoslari, ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishdagi afzalliklari hamda pedagogik jarayon sifatini oshirishdagi roli ko'rsatib berilgan. Maqolada xorijiy va mahalliy tajribalar solishtirilib, boshqaruv jarayonida kreativ fikrlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagoglar uchun boshqaruv samaradorligini oshirishda nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Umumiy o'rta ta'lim, innovatsion yondashuv, ta'lim muassasalarini boshqarish, pedagogik jarayon, innovatsion menejment, kreativ fikrlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article highlights the theoretical foundations of managing general secondary education institutions based on an innovative approach. It examines the modern requirements for effective management in the education system, the essence of innovation management, and its role in the educational process. The conceptual foundations of the innovative approach, its advantages in organizing the activities of educational institutions, and its role in improving the quality of the pedagogical process are also presented. The article compares foreign and local experiences and reveals the theoretical significance of using creative thinking, modern information and communication technologies, and innovative methods in the management process. The research findings provide a theoretical and methodological basis for school leaders and teachers to enhance management efficiency.

Key words: General secondary education, innovative approach, educational management, pedagogical process, innovation management, creative thinking, information and communication technologies, education efficiency.

Аннотация: В данной статье освещены теоретические основы управления общеобразовательными учреждениями на основе инновационного подхода. Рассмотрены современные требования к эффективному управлению в системе образования, сущность инновационного менеджмента и его роль в учебном процессе. Кроме того, показаны концептуальные основы инновационного подхода, его преимущества в организации деятельности образовательных учреждений, а также роль в повышении качества педагогического процесса. В статье сопоставлен зарубежный и отечественный опыт, раскрыта теоретическая значимость использования креативного мышления, современных информационно-коммуникационных технологий и инновационных методов в управленческом процессе. Результаты исследования служат теоретико-методологической основой для руководителей образовательных учреждений и педагогов в повышении эффективности управления.

Ключевые слова: Общее среднее образование, инновационный подход, управление образовательными учреждениями, педагогический процесс, инновационный менеджмент, креативное мышление, информационно-коммуникационные технологии, эффективность образования.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimidagi islohotlar uzluksiz ta'limni sifatli va samarali tashkil etishni, shuningdek, ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlar va innovatsiyalar asosida boshqarishni talab etmoqda. Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, boshqaruv sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi boshqaruv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbqiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va samarali yo'naltirish umumiy o'rta ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilangan.



Shuningdek, “Innovatsion boshqaruv o‘ziga xos san’at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov yoki izlanish asosida qarorlar qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir” degan fikr ilgari suriladi. Ushbu jarayonda, albatta, rahbar kadrlarning bilim va malakalari juda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ta’limda boshqaruv jarayonida innovatsiyalarni joriy etish borasidagi harakatlar qonunchiligimizda ham o‘z aksini topmoqda.

Xalq ta’limini rivojlantirish to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931-sonli “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarorida xalq ta’limi tizimi tashkilotlarini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minlashda ishni to’g’ri tashkil etish hamda o‘quv-tarbiya jarayoniga boshqaruvning yangi mexanizmlarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu farmon mazmun-mohiyatiga ko‘ra, ta’limni boshqaruv jarayoniga innovatsion va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish nazarda tutilgan.

“Ta’lim muassasasidagi ichki boshqaruv innovatsiyaning kombinatorli turi bo‘lib, ya’ni ilgari ma’lum bo‘lmagan elementlarning tashkiliy tuzilmaning yangi modeli asosida yangicha konstruktiv qo‘shilishi hamda ilgari qo‘llanilmagan prinsiplarning amaliyotga tatbiq etilishi sodir bo‘ladi”. Bu jarayon boshqaruvda bir qator to‘siqlarga olib kelishi mumkin, biroq bu holat innovatsiyalarni joriy etishga to‘sqinlik qilmasligi kerak.

“Innovatsiya” tushunchasi fanlararo xususiyatga ega bo‘lib, zamonaviy ijtimoiy tadqiqotlarda eng ommabop yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Transformatsiya vositasi sifatida innovatsiya falsafa, iqtisod, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va boshqa ko‘plab fanlar uchun mustaqil tadqiqot ob’ekti bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Innovatsiya – bu kelajak demakdir. Agar biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlashni istasak, uni aynan innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz zarur”.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Innovatsiya – bu kelajak demakdir” degan fikri zamirida bugungi taraqqiyotning bosh omili – yangilikka intilish va zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish yotadi. Ilmiy nuqtai nazardan, innovatsiya – bu mavjud tizimga nisbatan samaradorlikni oshiruvchi, yangi yechimlarni taklif qiluvchi mexanizm bo‘lib, ijtimoiy, iqtisodiy va ta’lim sohalarida raqobatbardoshlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyati va zamonaviy bilimlarga egalik darajasi oshadi.

“Innovatsiya” atamasi ommaviy axborot vositalarida keng qo‘llanilib, “ilmiy-texnik ijodkorlik”, “ilmiy-texnik taraqqiyot” kabi an’anaviy va hammaga yaxshi ma’lum tushunchalarning o‘rnini egalladi. Yangi atama ilmiy-ommabop materiallar, kasbiy muhit va ishbilarmonlik doiralarida faol qo‘llanila boshladi. “Innovatsiya” tushunchasi hatto “reyting” va “atribut” imidjiga ham ega bo‘lib qoldi.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, innovatsiya nafaqat texnik yangilik, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarda ham yangicha yondashuv va o‘zgarishlarni yuzaga keltiruvchi hodisadir. U taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yillarda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng yoritilmoqda. Jumladan, Drucker P. tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion menejment nazariyasi ta’lim tizimida yangiliklarni joriy etish, ularni boshqaruv mexanizmlariga integratsiya qilishda metodologik asos sifatida qaraladi. Unga ko‘ra, ta’lim sohasida innovatsiyalarni amalga oshirish rahbarlardan strategik qarash, kreativ fikrlash va texnologik kompetensiyani talab qiladi.

Fullan M. ta’limdagi islohotlar va innovatsion yondashuvlar haqida olib borgan tadqiqotlarida o‘qituvchi va rahbarlarning o‘zgarishlar jarayonidagi yetakchi rolini alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, maktablarni boshqarishda innovatsion yondashuvlarning muvaffaqiyati, avvalo, rahbarlarning yangiliklarni tatbiq etishga tayyorligi va pedagogik jamoaning hamkorlikdagi faoliyatiga bog‘liqdir.

Mahalliy olimlardan H. Tursunov va M. Qodirovlarning izlanishlarida O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion boshqaruv konsepsiyalarining joriy etilishi, ularning huquqiy-me’yoriy bazasi va pedagogik jarayon samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, PQ-3931-son qarorida xalq ta’limini boshqarish tizimini modernizatsiyalash va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlangan.

Bundan tashqari, Senge P. tomonidan taklif qilingan “O‘rganayotgan tashkilot” (Learning Organization) modeli ta’lim muassasalarida boshqaruvni tashkil etishda yangicha yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Bu modelga ko‘ra, ta’lim muassasasi doimiy o‘rganish, o‘zgarishlarga moslashish va innovatsiyalarni joriy etish orqali rivojlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Atamaning ommaviy axborot vositalari va ishbilarmonlik muhitida keng qo'llanilishi uning zamonaviylik, samaradorlik va ilg'orlik timsoliga aylanganini anglatadi. Stolyarov innovatsiyani ta'lim tizimida faoliyatni yangilash, ilg'or tajriba va texnologiyalarni joriy etish orqali sifat va samaradorlikni oshirish vositasi sifatida talqin qiladi. U innovatsion jarayonni boshqarish, loyihalash va monitoring qilish mexanizmlarini chuqur ilmiy asosda tahlil etadi.

“Innovatsiya” (lotincha *innovatio* – yangilanish) atamasi dastlab ilmiy-texnik faoliyat doirasida shakllangan bo'lib, keyinchalik ijtimoiy va pedagogik sohalarga ham kirib kelgan. U pedagogik innovatsiyalarni mavjud ta'lim tizimini takomillashtirish va yangilashga qaratilgan faoliyat deb izohlaydi.

Ilmiy nuqtai nazardan, innovatsiya dastlab texnika va ishlab chiqarish jarayonlarida samaradorlikni oshirish vositasi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa-da, uning pedagogikaga kirib kelishi ta'lim tizimining o'zgaruvchan ijtimoiy talablar bilan uyg'unlashuvini ta'minladi. Pedagogik innovatsiyalar orqali o'quv jarayonining metodikasi, mazmuni va tashkiliy shakllari modernizatsiya qilinadi, bu esa sifatli, raqobatbardosh, yangilikka ochiq avlodni tayyorlash imkonini beradi. Shu sababli, innovatsiya hozirgi ta'lim tizimining strategik rivojlanish omiliga aylangan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarish zamon talabi hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar ta'lim muassasasini raqobatbardosh, ochiq, shaffof va samarali tizimga aylantiradi. Innovatsion metodologiya asosida ishlab chiqilgan strategiyalar va texnologiyalar yordamida maktab faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin.

“Innovatsiya” atamasi va tushunchasi yangi iqtisodiy kategoriya sifatida XX asrning birinchi o'n yilligida avstriyalik (keyinchalik amerikalik) olim Jozef Alois Shumpeter (1883–1950) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” (1911) asarida J.A. Shumpeter birinchi bo'lib “yangi kombinatsiyalar” (ya'ni innovatsiyalar) masalalarini ko'rib chiqdi va innovatsion jarayonning to'liq tavsifini berdi. Keyinchalik “yangi kombinatsiya” atamasi “innovatsiya” atamasi bilan almashtirildi.

“Innovatsiya” tushunchasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda, innovatsiya – bu biror yangi ijtimoiy ehtiyojni yaxshiroq qondirish uchun yangi ilmiy yoki amaliy vosita, ya'ni yangilik yaratish, tarqatish va qo'llashni o'z ichiga oladigan kompleks jarayondir. Tor ma'noda esa, innovatsiya – bu jamoa faoliyatini takomillashtirish maqsadida kiritilayotgan va subyekt tomonidan yangilik sifatida qabul qilingan yangi vosita, uslub yoki yondashuvlar tizimidir.

Becker va Whisler bu tushunchaning dastlabki qo'llanishi ma'lum maqsadlarga erishishga qaratilgan tashkilotlarga xos ekanini ta'kidlaydi.

Knight esa “Innovatsiya – bu o'zgarishlarni amalga oshirish bo'lib, tashkilot va uning atrofdagilar uchun yangilikni anglatadi”, deya ta'kidlaydi. Bu fikrga ko'ra, innovatsiya faqat texnologik yangilik emas, balki tashkilotning ichki faoliyati yoki uning tashqi muhitidagi ijobiy o'zgarishlarni ham anglatadi. Ya'ni, har qanday yangilik, agar u amaliyotga tatbiq etilib, tashkilot yoki jamiyat uchun foydali bo'lsa – bu innovatsiya hisoblanadi. Bu yondashuv innovatsiyani real va funksional jarayon sifatida tushunishga yordam beradi.

“Innovatsiya – bu har qanday tashkilotning asosiy vositasi bo'lib, u orqali resurslarga yangi qobiliyatlar beriladi”.

Goldhar esa “Innovatsiya”ni tijoratlashtirish g'oyalari bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy va individual xatti-harakatlar majmui sifatida ta'riflaydi, bunda resurslarni taqsimlash bo'yicha qaror qabul qilish nuqtalari muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsiyalar asosan ikki shaklda bo'ladi: birinchisi – ma'lum bir mavzuni keng qamrovli tadqiq qilish va bajarish orqali ma'lumotlar, tajribalar, boshqacha qilib aytganda, tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirishdir. Ikkinchi shakli esa innovatsiyalarning eng asosiy yaratilish mexanizmi – biror yangilikdan ilhom olish yoki kuza-tish orqali boshqalar yaratgan innovatsiyalar asosida yaratiladigan innovatsiyalardir.

Pedagogika ensiklopediyasida “Innovatsiya” ingliz tilidan olingan bo'lib (innovations – kiritilgan yangilik, ixtiro), ilgari mavjud bo'lmagan predmet, tuzilma, qadriyat va faoliyat metodlari (texnologiyalari)ni yaratish, paydo bo'lgan yangiliklarni belgi, ramz va timsollarda ifodalash, ijtimoiy o'zlashtirish hamda tarqatish orqali jamiyat va inson hayotining barcha sohalariga tatbiq etish jarayoni; yangilanishni, o'zgarishni amalda ta'lim tizimiga joriy etish jarayoni va faoliyati sifatida talqin qilinadi. “Innovatsiya” atamasi eskilikning yangilik bilan o'zaro o'rin almashishiga xizmat qiladigan tezkor jarayon bo'lib, ta'lim muassasasining turli faoliyat sohalariga yangiliklarni joriy etishni ifodalaydi.



Innovatsiyalar uchta asosiy xususiyat bilan tavsiflanadi:

- ilmiy-texnikaviy yangilik bo'lib, "innovatsiya" tushunchasi "ixtiro" va "kashfiyot" tushunchalari bilan chambarchas bog'liq;
- kashfiyot fundamental darajada, yangilik esa texnologik (amaliy) darajada yuzaga keladi;
- innovatsiya jamoalar (laboratoriyalar, kafedralar, institutlar) tomonidan ishlab chiqariladi va innovatsion loyiha shaklida amalga oshiriladi, kashfiyot esa ba'zan tasodifan yuzaga kelishi mumkin, lekin yangilik doimo ilmiy izlanishlar natijasidir.

Innovatsiyalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi ham aynan uni samarali tashkil etish va boshqarish bilan bog'liqdir. "Innovatsiya – maqsadga yo'naltirilgan o'zgarishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka: muassasa, uyushma, jamoa va guruhlarga yangi va nisbatan barqaror bo'lgan elementlarni, umumiy holda xalqning ma'naviy-madaniy munosabatlari hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir".

Innovatsiyalar albatta jamoa tomonidan amalga oshirilishi va qo'llab-quvvatlanishi zarur bo'lgan jarayondir. Arximed innovatsiyaga shunday tarif beradi: "Agar mening dastagim bo'lsa, men butun Yer sharini harakatga keltira olaman". Bu g'oya dunyoning asosini qayta ko'rib chiqish va yangilash zaruriyatini anglatadi. Zamonaviy sharoitda rahbarlar o'zlarini talabchan his qilishlari uchun ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish juda muhim. Yangi g'oyalar yaratilishi tufayli ta'lim jarayonini nafaqat maktab darajasida, balki mintaqa va mamlakat doirasida ham boshqarish mumkin.

Boshqaruvda innovatsiyalarning joriy etilishi ularni izchil tashkil qilmasdan samarali natija bermaydi. Shuning uchun rahbarlar innovatsiyalarni joriy etish, o'zlashtirish va qo'llash algoritmini to'liq tushunishlari lozim.

Bu borada mamlakatimiz olimlari M. Qurbonov, E. Seyitxalilov, I. Majidov va Sh. Ahliddinovlar innovatsiyalarni ta'lim jarayonida turli tashabbuslar va yangiliklarni to'plash hamda o'zgartirish tamoyillari asosida rivojlanishni ta'minlovchi muhim jarayon sifatida tariflaydilar. Ularning fikricha, innovatsiyalar ko'p madaniyatli ta'lim makonining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan istiqbolli vosita sifatida namoyon bo'ladi.

E.M. Rogers esa: "Innovatsiya – bu individ yoki boshqa birlik tomonidan qabul qilingan, yangi deb qaraladigan g'oya, amaliyot yoki predmetdir", – deb ta'kidlaydi.

Ta'limdagi innovatsiyalarni joriy etishning muhim jihatlardan biri – bu boshqaruv samaradorligini oshirishdir. Masalan, raqamli platformalar, analitik tizimlar va sun'iy intellektdan foydalanish orqali ta'lim jarayonini real vaqt rejimida tahlil qilish, resurslarni to'g'ri taqsimlash va boshqaruv qarorlarini avtomatlashtirish mumkin.

Shuningdek, Patrushev B.I. o'z tadqiqotlarida "innovatsiya" atamasining XX asr boshida iqtisodiy tushuncha sifatida shakllanganini, keyinchalik esa ta'lim va boshqa sohalarga kirib kelib, boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilganini qayd etadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiyalar ta'lim jarayonida nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish, balki boshqaruvni tubdan isloh qilish, o'quv jarayonini tizimli ravishda takomillashtirish, resurslarni samarali boshqarish va ta'lim sifatini oshirishning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, novatsiyalar ta'lim boshqaruvida samarali, tezkor va yanada moslashuvchan tizimlarni yaratish, resurslarni samarali boshqarish va o'qituvchilarning professionallik darajasini oshirish imkonini beradi. Bu ta'lim tizimining umumiy samaradorligini oshiradi va unga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Maktab boshqaruv tizimini isloh etmasdan turib maktabdagi ta'lim muhitini o'zgartirib bo'lmaydi. Shu sababli hozirgi davrda maktablarda boshqaruv tizimiga innovatsiyalar kirib kelishi va innovatsion yondashuv asosida boshqarish samarali hisoblanadi – bu tajriba xorijda ham ommalashgan. Ammo bizning ta'lim tizimimizga kirib kelish jarayonida bir qancha to'siqlarga duch kelinmoqda. Ko'pchilik olimlar maktab boshqaruvini ta'lim tizimi deb hisoblaydilar, lekin ta'lim jarayonini boshqarish kam o'rganilgan. L.M. Syromyatnikova shunday deydi: "U moslashuvchan va ko'p qirrali bo'lishi kerak, chunki uning ob'ekti ochiq va o'zini o'zi tashkil etuvchi tizimdir".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3931-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018, № 07/18/3931/1841.
2. Qurbonov, Sh. (2006). Ta'lim sifatini boshqarish. Toshkent: Turon Inqilobi.
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili. Xalq so'zi, 25.01.2020, 1–5-betlar.

4. Xakimova, D. (2023). Maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent.
5. Столяров, Т. И. (2005). Инновационная деятельность в образовании. Москва.
6. Степанова, И. П. (2014). Инновационный менеджмент. Саратов.
7. Xodjaeva, B. X., & Xakimova, D. X. (2023). Ta'limda innovatsiyalarni boshqarish. Toshkent.
8. Drucker, P. F. (1985). Innovation and Entrepreneurship. New York: Harper & Row Publishers.
9. Jo'rayev, R. X., & Turg'unov, S. T. (2006). Ta'lim menejmenti. Toshkent: Voris nashriyoti.
10. Волкова, С. А. (yil ko'rsatilmagan). Инновации в образовании. Москва.
11. Mamadov, N. S. (2009). Umumiy ta'lim maktablarini innovatsion boshqarish. Toshkent.
12. Markina, O. S. (2010). Maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari faoliyatini sifat menejmenti. Moskva davlat mintaqaviy universiteti axborotnomasi. Seriya: Pedagogika. Moskva, 213–217-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.